

TASHKILOT HAYOTIYLIGI VA SAMARADORLIGINI STRATEGIK BOSHQARISH

Tohirxojayeva Dilafruz

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 1- bosqich magistranti
dilafruzxamidova52@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashkilotning hayotiyligini va samaradorligini strategik boshqaruvini takomillashtirish, unga ta'sir qiluvchi omillar, tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari hamda boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, tashkilot faoliyati, raqobatbardoshlik, trend, boshqaruvni takomillashtirish, ichki va tashqi omillar, innovatsiya, integral ko'rsatkich, strategiya, baholash, korxona barqarorligi

Abstract: This article describes the issues of improving the strategic management of the organization's vitality and efficiency, the factors influencing it, ways of increasing the organization's competitiveness, and improving the organizational and economic mechanisms of management.

Keywords: strategic management, organizational activity, competitiveness, trend, improvement of management, internal and external factors, innovation, integrated indicator, strategy, evaluation, enterprise stability

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования стратегического управления жизнеспособностью и эффективностью организации, факторы, влияющие на это, пути повышения конкурентоспособности организации, совершенствования организационно-экономических механизмов управления.

Ключевые слова: стратегический менеджмент, организационная деятельность, конкурентоспособность, тенденция, совершенствование управления, внутренние и внешние факторы, инновации, интегральный показатель, стратегия, оценка, устойчивость предприятия

KIRISH

Hozirgi kunda har bir sohani tog'ri boshqarishda strategik menejmentning ahamiyati katta. Uning asosiy vazifalaridan biri korxonani rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishdir. Korxonada byudjet tizimini ishlab chiqish uchun kompaniya ichidagi rejalarни ya'ni strategik reja, o'rta muddatli va taktik rejalarни amalga oshirishi kerak. Hozirda korxonalar amaliyotida strategik boshqarishning dolzarbliги ortib bormoqda. Albatta, bu jarayon ularning vakolatini kengayishi hamda korxonaning iqtisodiy ahvoli uchun javobgarlikning oshganligi bilan bog'liqidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi davlat tomonidan dolzarb masalalardan etib belgilangan.

Zamonaviy dunyoda tashkilotlarning hayotchanligi va samaradorligi ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Tez o'zgarib turuvchi bozor sharoitida, global raqobat va texnologik taraqqiyotlar fonida tashkilotlar o'z faoliyatini samarali boshqarish va kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyor bo'lish uchun strategik yondashuvni talab qiladi. Strategik boshqarish tashkilotning maqsadlariga erishish, resurslardan samarali foydalanish, xavflarni kamaytirish va o'zgarishlarga moslashish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot tashkilot hayotchanligi va samaradorligini strategik boshqarishning asosiy jihatlarini o'rganadi.

Tashkilotlar o'zlarining faoliyatini yanada samarali amalga oshirish maqsadida strategik rejalshtirish, resurslardan foydalanish, xarajatlarni boshqarish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Ushbu tadqiqotda tashkilotning hayotiyligini va samaradorligini oshirish uchun strategik boshqarishning ahamiyati, metodlari va amaliyotlari o'rganiladi. Shuningdek, tahlil jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar asosida qaysi strategik usullar eng muvaffaqiyatli ekanligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalarning strategik boshqaruvini rivojlantirish bo'yicha juda ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Jumladan, xorij olimlaridan R.S.Kaplan, D.P.Norton asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng ko'rib chqilgan . Ushbu olimlarning asosiy qarashlari strategik boshqaruv tizimini korxona va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorlik ko'rsatkichini baholashga qaratilgan.

I.Ansoffning qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollarini o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash muhim o'rinni tutadi. Uning e'tiborida korxona doim risk bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun proqnozlar tuzish, ekstropflyatsiya usulini qo'llash zarur. M.Porter qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o'rni, ularni qo'llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta'sir masalalari tadqiq etilgan. Mahalliy olimlardan,

R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripov qarashlarida esa korxona alohida obyekt sifatida qaralib, uning mazmun va mohiyati, unga qo'yiladigan talablar, ko'rsatkichlar tizimi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruvi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Korxonalar boshqaruvi va ularga qo'yiladigan talablar, tamoyillar, boshqaruv shakllari baholab berilgan.

I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning ilmiy qarashlarida korxonalar faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolari, ularni yechish bo'yicha takliflar, boshqaruv usullari, boshqaruvda optimal variantni tanlash, boshqaruv samaradorligini baholash kabi masalalar yoritib berilgan.

G.Sh.Xonkeldiyeva ilmiy izlanishlarida korporatsiyalarni boshqarish, tashkiliy— iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash, rag'batlantirish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari yoritilgan. Xalqaro tajribalar dan kelib chiqib,

korporativ boshqaruvni zamonaviy usullaridan foydalanish yo'llari, milliy tuzilmalarni shakllantirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sifat tahlili usullariga asoslangan. Analitik va deskriptiv tadqiqot usullaridan foydalaniadi. Quyidagi manbalar tahlil qilinadi:

Ilmiy adabiyotlar: Strategik boshqaruv, tashkilot hayotchanligi, samaradorlikni oshirish va boshqa tegishli sohalardagi ilmiy maqolalar va kitoblar tahlil qilinadi. Bu tahlil strategik boshqarishning nazariy asoslarini tushunish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Amaliy misollar: Muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsiz strategik boshqarish misollarini tahlil qilish orqali amaliy tajriba o'rganiladi. Bu misollar turli sohalardagi tashkilotlarning tajribalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ekspertlar fikrlari: Soha mutaxassislari va tajribali menejerlar bilan intervyular o'tkazish orqali ularning fikrlari va tajribalari yig'iladi. Ekspertlarning fikrlari strategik boshqarishning amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, tashkilot hayotchanligi va samaradorligini strategik boshqarish quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Aniq maqsadlar va strategiya: Uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarni aniqlash, raqobatbardoshlik muhitini tahlil qilish va bu asosda strategiya ishlab chiqish.

Resurslarni samarali boshqarish: Moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni samarali taqsimlash va ulardan maqsadli foydalanish.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Yangi g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va o'zgarishlarga moslashish.

Xodimlarni boshqarish: Xodimlarni malakali tanlash, o'qitish va rag'batlantirish orqali ularning samaradorligini oshirish.

Xavflarni boshqarish: Potensial xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha choralarini ko'rish.

Muloqot va hamkorlik: Tashkilot ichida va tashqarisida samarali muloqot va hamkorlikni o'rnatish.

Doimiy monitoring va baholash: Strategiya amalga oshirish jarayonini muntazam ravishda monitoring qilish va natijalarni baholash.

Strategiya aniqlik, shaffoflik, manfaatlar muvozanatini ta'minlash, nazoratning uzluksizligi va loyihami yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Aniqlik tamoyili har bir davlat ishtirokidagi korxonaga nisbatan maqsadni shakllantirish va belgilashni, unga erishish usullarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini, hisobotni va boshqa boshqaruv mexanizmlarini tavsiflaydi. Shaffoflik tamoyili davlat ishtirokidagi korxonalar va ularda davlat nomidan mulkdor (aksiyador, ishtirokchi, muassis) funksiyasini amalgga oshirayotgan davlat organlari haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi, mavjudligi va oshkoraligni, korxonalar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va hisobini yuritishni, shu jumladan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini amalgga oshirish orqali ta'minlaydi.

Korxonalar faoliyatining barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

	omillar	Omillar ta'siri natijalari
1	Bilim va ko'nikma	Ishlab chiqarish korxonalarida aynan boshqaruv (bozor iqtisodiyoti qonunlari) bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yetishmasligi innovatsion boshqaruvni joriy qilishga to'sqinlik qiladi
2	Markazlashish darajasi	Markazlashuv darajasining yuqoriligi quyi pog'ona boshqaruvchilarini ijodiy fikrlash va boshqaruvda ijodiy yondashish imkoniyatini cheklaydi.
3	Kommunikatsiya tizimi	Kommunikatsiya tizimini yaxshi tashkil qilinmagayligi yoki boshqaruvchini ulardan samarali foydalana olmasligi axborot va yangiliklarni ayrim hollarda o'z vaqtida yetkazish muammosini keltirib chiqarmoqda
4	Shartnoma munosabatlari	Boshqaruvchi va xodim belgilangan vazifalarni aniq bilmasligi va ularga amal qilinmasligi boshqaruv jarayonini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.
5	Innovatsiyalarga bo'lgan qiziqish	Boshqaruvchilar tomonidan innovatsiyalarga bo'lgan qiziqishning pastligi ya'ni boshqaruvdagi egiluvchanlik qobiliyatining kamligi.
6	Rag'batlantirish	Boshqaruvda rag'batlantirish tizimini mukammal ishlab chiqilmaganligi innovatsion boshqaruvni joriy qilishga qiziqishni pasaytiradi.

Omillarning ko'pligi, ularni muayyan belgilar bo'yicha tasniflanishini amalga oshirishga imkon beradi. Korxonaning tashqi omillariga quyidagilar kiradi: iqtisodiyot sohasida davlatning inqirozga qarshi qaratilgan siyosati; mamlakatdagи demografik vaziyat; siyosiy barqarorlik; fan va texnikaning taraqqiyoti; transport infratuzilmasini rivojlanganligi. Ichki omillar korxonaning ichki muhitida, uning kichik tizimlarida (xodimlar, ishlab chiqarish, marketing, sotish, moliya, tashkiliy tuzilma) shakllanadi. Ichki omillarni boshqarish korxonaga barqarorlikni mustahkamlashning rezervlarini aniqlash va tashqi omillar o'zgargan taqdirda, ishlab chiqarishni tezkor ravishda boshqarish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari tashkilot hayotiyligi va samaradorligini strategik boshqarish orqali oshirish mumkinligini isbotlaydi. Tashkilotlar o'z faoliyatini yanada samarali qilish uchun, aniq strategik maqsadlar o'rnatishi, resurslarni oqilona boshqarishi va innovatsiyalarni joriy etishi lozim. Zamonaliviy raqobat sharoitida, bunday yondashuvlar tashkilotlarni muvaffaqiyatga yetaklaydi va ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Tashkilot hayotchanligi va samaradorligini strategik boshqarish murakkab, ammo zarur jarayondir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati aniq maqsadlarni belgilash, resurslarni samarali boshqarish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, xodimlarni malakali boshqarish, xavflarni kamaytirish va doimiy monitoringga bog'liq. Strategik boshqarishning samaradorligini oshirish uchun tashkilotlar o'ziga xos sharoitlarini, raqobat muhitini va kelajakdagi istiqbollarni hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llashi zarur. Doimiy tahlil va moslashuvchanlik strategik boshqarishning muvaffaqiyat kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov, S. (2018). "Strategik boshqarish: nazariya va amaliyot." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Qodirov, D. (2020). "Tashkilotlarning samaradorligini oshirishning zamonaliviy usullari." Toshkent: Fan va texnologiyalar.
3. Karimov, I. (2019). "Boshqaruv tizimlari: nazariy asoslar va amaliy qo'llanma." Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyot universiteti.
4. Isayev, B. (2017). "Strategik boshqarish va innovatsiyalar." Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
5. Rustamova, M. (2021). "Tashkilotlarni boshqarish: mushaklar va strategiyalar." Tashkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
6. Xolov, R. (2018). "Hayotiy sikl va uning tashkilot samaradorligiga ta'siri." Tashkent: Markaziy bank nashrlari.
7. Ergashev, S. (2022). "Strategik boshqarish jarayonida faktlar va analitik yondashuv." Tashkent: O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
8. Tojiev, M. (2020). "Tashkilot qayta tuzish va strategik boshqaruv." Tashkent: O'zbekiston davlat jahon iqtisodiyoti universiteti.
9. Nurmatov, Q. (2021). "Bajargichlar va tashkilot samaradorligini oshirish." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi.
10. Yulchiev, A. (2019). "Tashkilotning strategik boshqaruvini boshqarish: tamoyillar va yondashuvlar." Tashkent: JSTU nashri.